

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI VA
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

XUSANOV NAVRUZBEK SHOXIJAXON O‘G‘LI

***RAPHANUS SATIVUS L.* NING MORFOXO‘JALIK BELGILARI VA
AYRIM BOKIMYOVIY KO‘RSATKICHLARIGA ATROF-MUHIT VA
IQLIM SHAROITLARINI TA’SIRI**

**11.00.05–Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish,
03.00.09–Umumiy genetika ixtisosliklari**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Xusanov Navruzbek Shoxijaxon o‘g‘li

Raphanus sativus L. ning morfoxo‘jalik belgilari va ayrim biokimyoviy ko‘rsatkichlariga atrof-muhit va iqlim sharoitlarini ta’siri.....3

Хусанов Наврузбек Шахиджаханович

Влияние условий окружающей среды и климата на морфоэкологические признаки и некоторые биохимические показатели *Raphanus sativus* L.22

Khusanov Navruzbek Shokhijakhon o‘g‘li

Scientific substantiation of the influence of environmental and climatic conditions on the morphological and biochemical characteristics and parameters of *Raphanus sativus* L.42

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works.....47

**O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI DSc.03/27.02.2020.B.01.15
RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ATROF-MUHIT VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH
TEXNOLOGIYALARI ILMIY-TADQIQOT INSTITUTI VA
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

XUSANOV NAVRUZBEK SHOXIJAXON O‘G‘LI

***RAPHANUS SATIVUS L.* NING MORFOXO‘JALIK BELGILARI VA
AYRIM BOKIMYOVIY KO‘RSATKICHLARIGA ATROF-MUHIT VA
IQLIM SHAROITLARINI TA’SIRI**

**11.00.05–Atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish,
03.00.09–Umumiy genetika ixtisosliklari**

**Biologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
AVTOREFERATI**

Toshkent – 2025

Biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2025.3.PhD/B1431 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti va O'zbekiston milliy universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasi (www.nuu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Turabayev Akmal Normuminovich

biologiya fanlari doktori, professor

Boboyev Sayfulla G'afurovich

biologiya fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Kulmatov Rashid Anarovich

kimyo fanlari doktori, professor.

Chorshanbiyev Nurali Esonpulotovich

biologiya fanlari doktori, yetakchi ilmiy hodim

Yetakchi tashkilot:

Guliston Davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/27.02.2020.B.01.15 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashining 2025 yil «30» sentyabr kuni soat 10⁰⁰ daqi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy, O'zbekiston Milliy universitetining Biologiya va ekologiya fakulteti binosi, 2-qavat, 203-xona. Tel.:(+99871-227-15-44).

Dissertatsiya bilan O'zbekiston Milliy universiteti Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (150-raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100174, Toshkent sh., Olmazor tumani, Universitet ko'chasi 4-uy. Tel.: (99871-246-67-72).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil «16» sentyabr kuni tarqatildi.

(2025 yil «16» sentyabrdagi 31-raqamli reyestr bayonnomasi).



Raximova Tura

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy kengash raisi, biologiya fanlari doktori, professor

Allaberdiev Rustamjon Xamraevich

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy kengash kotibi, biologiya fanlari nomzodi, dotsent

Jabbarov Zafarjon Abdulkarimovich

Ilmiy daraja beruvchi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori, professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda aholi sonining ortib borishi, oziq-ovqatga bo‘lgan talabning keskin ortishiga sabab bo‘lmoqda. Bu esa qishloq xo‘jalik ekinlaridan yuqori va sifatli hosil olishni talab etadi. Biroq, qishloq xo‘jalik ekinlari hosildorligi va sifatiga turli omillar, xususan ekologik omillar salbiy ta‘sir ko‘rsatmoqda. Buning uchun har bir qishloq xo‘jalik ekinlari bo‘yicha individual ishlash, bugungi kun talablariga mos navlarini yaratish, maqbul yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish hamda ekologik toza va sifatli mahsulot yetishtirish dolzarb vazifalardan sanaladi. Hozirgi kunda eng kop iste‘mol qilinadigan sabzavotlardan yapon turpi-*Raphanus sativus L.* hisoblanib, ularning barg, ildiz, ziravorli sabzavotlar va moyli o‘simliklar sifatida hamda tarkibidagi ozuqalardan va ularning kimyoviy birikmalari sog‘liq uchun foydali ahamiyatga ega ekanligi bilan muhim ahamiyat kasb etadi.

Jahonda Xitoy, Yaponiya, Koreya va boshqa davlatlar olimlari tomonidan yapon turpi (*Raphanus sativus L.*) ni ekologik hududlar iqlim sharoitlaridan kelib chiqib, yangi nav va duragaylarini yaratish, yetishtirish agrotexnologiyalarini ishlab chiqish, *Raphanus sativus L.* o‘simligining ekologik, morfoxo‘jalik va biokimyoviy xususiyatlarini o‘rganish, turli atrof-muhit sharoitlarga moslashuvchanligini, ozuqaviy qiymati yuqori bo‘lgan nav va duragaylarni ko‘paytirish usullari ishlab chiqish, ayniqsa sho‘rlanish darajasi ortib orayotgan tuproqlarda o‘simliklarning morfoxo‘jalik belgilarini aniqlashga alohida e‘tibor berilmoqda.

Respublikamizda aholini oziq-ovqatga bo‘lgan talabini qondirish maqsadida turli qishloq xo‘jalik ekinlarini mamlakatimizga olib kirish va hududlarga moslashtirish orqali ishlab chiqarishga alohida e‘tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-noyabrdagi “Dorivor o‘simliklarni yetishtirish va qayta ishlash, ularning urug‘chiligini yo‘lga qo‘yishni rivojlantirish bo‘yicha ilmiy tadqiqotlar ko‘lamini kengaytirishga oid chora-tadbirlar to‘g‘risida” PQ-4901-son qarorida «...dorivor o‘simliklarni muayyan tuproq-iqlim sharoitini hisobga olgan holda madaniy holda yetishtirishni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha aniq ilmiy asoslangan takliflar ishlab chiqish» kabi vazifalar begilangan. Ushbu vazifalardan kelib chiqib, *Raphanus sativus L.* o‘simligini hududlarning tuproq-iqlim sharoitlariga qarab morfobiologik xususiyatlari, biokimyoviy ko‘rsatkichlarini o‘zgarishini tahlil qilish asosida turli ekologik sharoitlarga mos bo‘lgan nav va duragaylarini aniqlash yuzasidan tadqiqotlarni olib borish muhim ilmiy-amaliy ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 17-iyundagi PF-5742-sonli “Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan samarali foydalanish chora-tadbirlari to‘g‘risida”¹, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”², O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 16-fevraldagi PF-36-sonli “Respublikada oziq-ovqat xavfsizligini ta‘minlashning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 17.06.2019 yildagi PF-5742-son

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son

qo‘shimcha chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi¹ Farmonlari va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 10-apreldagi PQ-4670-sonli “Yovvoyi holda o‘sovchi dorivor o‘simliklarni muhofaza qilish, madaniy holda yetishtirish, qayta ishlash va mavjud resurslardan oqilona foydalanish chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi² qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me‘yoriy-xuquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishga ushbu tadqiqot ishi muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining V. «Qishloq xo‘jaligi, biotexnologiya, ekologiya va atrof-muhit muhofazasi» ustuvor yo‘nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. *Raphanus sativus* L. o‘simligining o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar: P.R.Hanlon, D.M.Webber, D.M.Barnes (2007), J. R. Dinneny (2008), R.Dal-Re (2011), F.Andrés (2014), C.Breuer, (2014), S.Kim (2016), S.A. Banihani (2017), X.Chen, (2017), Y.Hwang (2017), R.Bhosale (2018), L.K.Ngo, H.L.Price, W.W.Bennett, P.R.Teasdale, D.F.Jolley, (2020), H.Lee, (2022), J. Park, (2019), A.A. Tkachenko, M.S.Gancheva, V.E.Tvorogova, L.G. Danilov, A.V.Predeus, I.E.Doduyeva va L.L.Lyutova (2021) kabi xorijlik olimlar tomonidan olib borilgan.

MDH mamlakatlarida *Raphanus sativus* L. o‘simligini o‘rganishga qaratilgan tadqiqotlar L.V. Sazonova, N.S.Pivovarova, Ye.G. Mantrova (1986), L.V. Sazonova, Ye.A.Vlasova (1990), M.S.Bunin, X. Yesikova (1993), M.S. Bunin, S.M. Sichyov, (1994), A.S. Bolotskix, Chjen U, (2001) va M.S. Bunin (2003) kabi xorijiy olimlar tomonidan o‘rganilgan.

Daykonning O‘zbekistonga joriy etilishining dastlabki yillaridan boshlab, mahalliy sharoitlarga moslashgan navlarni yaratish bo‘yicha seleksiya ishlari boshlang‘an. Natijada, “Kuz hadyasi”, “Sodiq” kabi yangi navlar yaratilgan. O‘zbekistonda daykon bilan ishlaydigan mahalliy olimlardan B.T.Turdikulov, Ye.G.Dobrutskaya, 2000; B.T. Turdikulov, Y.T. Dobrutskaya, V. Zuyev, A. Kadirxo‘jayev, A. Zuyeva, U. Akramov, S.Lapasov 2001, 2007; A.Zuyeva, A. Kadirxo‘jayev, U.Akramov 2004, 2005; V.F.Pivovarov, M.H.Akramov, Ye.G.Dobrutskaya 2001, hamda R.F.Mavlyanova (1983) va boshqalar qator tadqiqotlar olib borib, yangi navlarni yaratganlar.

Respublikamizda *Raphanus sativus* L.ning turli tuproq-iqlim sharoitlarda yetishtirilishi va atrof-muhitga bog‘liq holda o‘rganish bo‘yicha ilmiy-tadqiqot ishlari yetarlicha olib borilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta‘lim muassasasining ilmiy-tadqiqot rejalari bilan bog‘liqligi.

Dissertatsiya tadqiqoti O‘zbekiston Milliy universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq “Global iqlim o‘zgarishi sharoitida flora va faunaning bioekologik xossa-xususiyatlarini tadqiq qilish, bioxilma-xilligini saqlash, tuproq-suv resurslarining ekologik holatlarini baholash hamda tabiiy resurslardan oqilona

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 16.02.2024 yildagi PF-36-son

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 10.04.2020 yildagi PQ-4670-son

foydalanishning ilmiy-amaliy asoslarini ishlab chiqish” (2020-2024) mavzusidagi ilmiy-tadqiqot dasturi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi: *Raphanus sativus* L. nav va duragaylarining morfoxo‘jalik belgilari va biokimyoviy ko‘rsatkichlariga atrof-muhit va iqlim sharoitlarini ta’siri hamda yetishtirish bo‘yicha tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Tadqiqot hududlarining tuprog‘i hamda sug‘orish suvlarining kimyoviy tarkibini tahlil qilish;

Tadqiqot hududlarining iqlimi o‘zgarishini tahlil qilish;

Raphanus sativus L. o‘simligi urug‘ unuvchanligini tuproq-ekologik dala sharoitiga bog‘liq holda o‘zgarishini ilmiy asoslash;

Raphanus sativus L. nav va duragaylarini turli tuproq-ekologik sharoitlarda morfoxo‘jalik belgilarini o‘rganish;

Raphanus sativus L. o‘simligi nav va duragaylarini biokimyoviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish asosida turli tuproq-ekologik sharoitlari uchun mos bo‘lgan nav va duragaylarni aniqlash;

Raphanus sativus L. o‘simligi Sodiq navi va xorijiy duragaylarini molekulyar genetik usullar yordamida tahlil qilish;

Turli ekologik sharoitlarda yetishtirilgan daykon o‘simligi morfoxo‘jalik belgilarini aniqlash va amaliyotda yetishtirishga oid tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqot obyektlari sifatida daykon *Raphanus sativus* L. o‘simligini Sodiq navi va xorijiy Chenong du hamda Big time duragaylari olingan.

Tadqiqotning predmeti. Toshkent shahri O‘zbekiston Milliy universiteti qoshidagi “Botanika bog‘i” tajriba maydoni va Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumani hududlarida daykon *Raphanus sativus* L. o‘simligining Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragaylarining ekologik, morfoxo‘jalik belgilari va biokimyoviy ko‘rsatkichlarini o‘rganish hisoblanadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tadqiqotlarini bajarish jarayonida an’anaviy usullardan duragaylash, fenologik kuzatuv, molekulyar genetik usullardan genom DNK ajratish, gel-elektroforez, PZR tahlillar, genotiplash, in silico, bioinformatik, statistik usullardan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

Ilk bor daykon *Raphanus sativus* L. o‘simligining Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragaylarini turli ekologik sharoitlarda urug‘ unuvchanligi dala sharoitiga bog‘liq holda o‘zgarishi ochib berilgan;

Raphanus sativus L. o‘simligining Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragaylarini morfoxo‘jalik, biokimyoviy ko‘rsatkichlarini tahlil qilish asosida turli tuproq-ekologik sharoitlari uchun mos bo‘lgan nav va duragaylari aniqlangan;

Turli tuproq-ekologik sharoitlarda yetishtirilgan daykon *Raphanus sativus* L. o‘simligining Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragaylarini morfoxo‘jalik belgilari isbotlangan;

Ilk bor daykon *Raphanus sativus* L. o'simligining Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragaylari RsSA033, RsHH023, RsSH016 va RsSA027 praymerlari bilan molekulyar genetik usullar hamda bioinformatik dasturlar yordamida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

Raphanus sativus L. o'simligining Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragay urug'larini turli tuproq-ekologik sharoitlarda unuvchanlik ko'rsatkichlarini aniqlash asosida hududlar kesimida maqbul ekish muddatlari ishlab chiqilgan;

Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragaylari ishtirokida yangi duragay kombinatsiyalar olingan;

Raphanus sativus L. o'simligining Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragay o'simliklari morfoxo'jalik belgilari, biokimyoviy ko'rsatkichlariga turli tuproq-ekologik sharoitlarning ta'siri aniqlangan va hududga mos nav va duragaylar ajratib olingan.

Raphanus sativus L. o'simligining Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragaylarini o'simliklarini sho'rlanmagan va o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda yetishtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi ishda klassik va zamonaviy usullarning qo'llanilganligi hamda ilmiy yondashuvlar, tahlillar asosida olingan natijalarning nazariy ma'lumotlarga mos kelishi, ularning yetakchi ilmiy nashrlarda chop etilganligi, ma'lumotlarni zamonaviy dasturlar (Biostat 2007) asosida statistik tahlil qilinganligi, amaliy natijalarni vakolatli davlat va xalqaro tashkilotlar tomonidan tasdiqlanganligi hamda amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati tadqiqot hududi tuproq-iqlim sharoitlarining sug'orish suvlarini kimyoviy tarkiblari, urug'lar unuvchanligini tuproq-ekologik sharoitlarga bog'liqligi, daykon *Raphanus sativus* L. nav va duragaylari morfoxo'jalik belgilari va biokimyoviy ko'rsatkichlarini turli ekologik sharoitlarda aniqlanganligi, RsSA033, RsHH023, RsSH016 va RsSA027 praymerlari bilan molekulyar genetik usullar va bioinformatik dasturlar yordamida tahlil qilinganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati daykon o'simligi urug'lari unuvchanligini turli tuproq-iqlim sharoitlarda o'rganish orqali maqbul ekish muddatlari belgilangan, tuproqlarning xossa-xususiyatlari, sho'rlanishi, ozuqa moddalar bilan ta'minlanish darajalari va sug'orish suvlarining kimyoviy tarkibi aniqlanib, ularning hosildorlikka va hosil sifatiga ta'siri aniqlangan, o'rtacha sho'rlangan tuproqlarda yetishtirish bo'yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan, hududlarda yuqori samara keltiruvchi nav va duragaylar tanlash hamda yuqori hosil olishda asos bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Daykon *Raphanus sativus* L. o'simligining Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragaylarini morfoxo'jalik belgilari va biokimyoviy ko'rsatkichlariga atrof-muhit va iqlim sharoitlari ta'siri bo'yicha olingan natijalar asosida:

Qishloq xo'jaligida degradatsiyaga uchragan foydalanilmay bo'sh yotgan yerlarda istiqbolli daykon *Raphanus sativus* L. o'simligining Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragaylarini morfoxo'jalik belgilari bo'yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar Qoraqalpog'iston Respublikasi qishloq xo'jaligi vazirligi faoliyati amaliyotiga joriy qilingan (Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligining 2025-yil 24-martdagi №02/017-849-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 1 gektar maydonda 31 tonna (310 s/ga) hosil olingan hamda sho'rlangan tuproqlardan ham hosil olish imkonini bergan;

Daykon *Raphanus sativus* L. o'simligining Sodiq navi va xorijiy Cheong du hamda Big time duragaylarini tuproq-ekologik sharoitlarda xususan, ekologik ekstremal zonada yetishtirish bo'yicha ishlab chiqilgan amaliy tavsiyalar O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi faoliyati amaliyotiga joriy etilgan (O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligining 2025-yil 25-martdagi №03-03/1-03/3-2883-sonli ma'lumotnomasi). Natijada 1 gektar maydonda 71.2 t. (712 s/ga) hosil olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Mazkur tadqiqot natijalari 2 ta xalqaro va 3 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha 9 ta ilmiy ish chop etilgan. Shundan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 4 maqola, ulardan 3 tasi respublika va 1 tasi xorijiy ilmiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 127 sahifani tashkil etadi.


DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida o'tkazilgan tadqiqotlarning dolzarbligi va zarurati asoclangan bo'lib, tadqiqotning maqsadi va vazifalari, obykti va predmeti tavsiflangan, respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, tadqiqot natijalarini amaliyotga joriy qilish, nashr etilgan ishlar va dissertatsiya tuzilishi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning **“Daykon o'simligining xalq xo'jaligidagi ahamiyati, tarqalishi, genetikasi va dorivorlik xususiyatlarini o'rganish”** deb nomlangan birinchi bobining birinchi bo'limida **“Daykon o'simligi haqida ma'lumot, morfoxo'jalik belgilari va tarqalishi yuzasidan tahlillar”** bo'yicha adabiyotlar tahlili keltirilgan. Ushbu bobning ikkinchi bo'limida **“Daykonning biokimyoviy ko'rsatkichlari, bioinformatik va dorivorlik xususiyatlari bo'yicha tahlili”** haqida ma'lumotlar berilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot olib borilgan hududlarning tabiiy va ekologik sharoitlari, tadqiqot obyektlari va usullari”** deya nomlangan ikkinchi bobining birinchi bo'limida tadqiqot olib borilgan hududlarning iqlim sharoitlari, tajriba


hududlarining geografik jihatdan joylashuvi, tuprog'i, iqlim sharoitlari, yog'ingarchilik miqdori, havo haroratining ko'rsatkichlari berilgan.



1-rasm 2022-2024 yillarda harorat va yog'ingarchilik miqdori

O'zgidromet meteostansiyasi ma'lumotlaridan foydalanildi va ba'zi iqlim parametrlari harorat va yog'ingarchilik bo'yicha ma'lumotlar statistik qayta ishlandi (1-rasm).

O'zgidromet meteostansiyasi ma'lumotlaridan foydalanildi va ayrim iqlim parametrlari asosida ma'lumotlar asosida ildizmeva og'irligi bilan harorat va yog'ingarchilik miqdori korrelyatsion tahlil qilingan. Daykon o'simligining Sodiq navi va Big time duragayida ildizmeva og'irligi bilan harorat o'rtasidagi bog'liqlik tahlil qilinganida har ikkala hududda ham kuchsiz ijobiy darajadagi bog'liqlik mavjudligi, ildizmeva og'irligi bilan harorat o'rtasida kuchsiz ijobiy darajadagi bog'liqlik O'zMU botanika bog'ida kuzatilgan bo'lsa, kuchsiz salbiy darajadagi bog'liqlik esa Mo'ynoq tumanida kuzatildi (2-rasm).



2-rasm daykon o'simligining harorat va yog'ingarchilik o'rtasidagi korrelyatsion bog'lanishi

O'zMU botanika bog'i sharoitida yetishtirilgan Sodik navini ildizmeva og'irligi bilan yog'ingarchilik o'rtasidagi korrelyatsion bog'liqlik $r=0,56$ ni tashkil qilib, o'rtacha ijobiy bog'liqlik borligi, Mo'ynoq tumani sharoitida esa $r=0,36$ ni tashkil etib, biroz past ko'rsatkich kuzatildi. Cheong du duragayi ildizmeva og'irligi bilan yog'ingarchilik miqdori orasidagi korrelyatsion bog'liqlik katta farq qilmagan holda, O'zMU botanika bog'i sharoitida $r=0,60$ ni tashkil etib, o'rta

darajadagi hamda Mo‘ynoq tumani sharoitida esa $r=0,32$ ni tashkil qilgan holda, kuchsiz ijobiy korrelyatsion bog‘liqlik borligi aniqlandi.

Shu bobning ikkinchi bo‘limida tadqiqot obyektlari va usullari batafsil keltirilgan. Dissertatsiya ishida dala tadqiqotlari, biokimyoviy va laboratoriya tahlillari, statistik taqqoslash hamda bioinformatik dasturlar va boshqa usullardan keng foydalanilgan.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqot olib borilgan hududlarni tuproq, sug‘orish suvlari, ekish muddatlari, morfoxo‘jalik belgilari va ayrim biokimyoviy ko‘rsatkichlari tahlili”** deya nomlangan uchinchi bobida tadqiqot olib borilgan hududlarning tuproq tahlillari keltirib o‘tilgan, ya‘ni tuproqlarning mexanik tarkibi, sho‘rlanish holati, singdirish sig‘imi hamda agrokimyoviy xossalari, ekish muddatlari, morfoxo‘jalik belgilari va ayrim biokimyoviy ko‘rsatkichlari batafsil yoritib berilgan.

Dissertatsiya ishining uchinchi bobining birinchi bo‘limida **O‘zMU Botanika bog‘i hududining tuproq tahlili natijalari berilgan.**

Gumus bilan ta‘minlanganlik darajasi tasnifiga muvofiq, 1,0–1,5 % diapazondagi ko‘rsatkichlar odatda “o‘rtacha” va “o‘rtachadan yuqori” kategoriyalarga to‘g‘ri keladi; demak, ko‘rib chiqilayotgan tuproqlar agronomik jihatdan qulay, lekin organik moddalar balansini barqarorlashtirish uchun muntazam agrotexnik tadbirlarni (o‘simlik qoldiqlarini qaytarish, siderat ekinlar ekish, mahalliy organik o‘g‘itlar ishlatish) talab etadi. Shu nuqtayi nazardan, humus konsentratsiyasi ustki 0–5 sm qatlamda nisbatan yuqori bo‘lishi yerosti qatlamlarida ham biogen potensialni oshirish zarurligini ko‘rsatadi; aks holda, strukturaviy barqarorlik va suv-fizik xossalari yillar davomida degradatsiyaga uchrashi mumkin (1-jadval).

Harakatchan fosfor (P_2O_5 , Olsen ekstrakti). 1-kesma bo‘ylab fosfor konsentratsiyasi 0–5 sm qatlamda $27,17 \text{ mg kg}^{-1}$, 5–15 sm qatlamda $24,39 \text{ mg kg}^{-1}$ va 15–30 sm qatlamda $21,48 \text{ mg kg}^{-1}$ gacha kamayadi. Almashinuvchan kaliy (K_2O , ammoniy-atsetat ekstrakti). Kaliy zaxirasi ham bosqichma-bosqich kamayib, 0–5 sm qatlamda 218 mg kg^{-1} , 5–15 sm qatlamda 203 mg kg^{-1} va 15–30 sm qatlamda 185 mg kg^{-1} ni tashkil etadi.

1-jadval

O‘zMU batanika bog‘i hududida qadimdan sug‘oriladigan tipik bo‘z tuproqlarning agrokimyoviy xossalari % va mg/kg da ko‘rsatilgan

| Qatlam chuqurligi cm | Harakatchan, mg/kg | | N- NO ₃ , mg/kg | Umumiy, % | | N, % | Gumus | C:N |
|-------------------------|-------------------------------|------------------|----------------------------------|-------------------------------|------------------|-------|-------|------|
| | P ₂ O ₅ | K ₂ O | | P ₂ O ₅ | K ₂ O | | % | |
| 0-5 | 27,17 | 218 | 28,17 | 0,161 | 1,98 | 0,116 | 1,15 | 5,75 |
| 5-15 | 24,39 | 203 | 26,41 | 0,152 | 1,76 | 0,111 | 1,09 | 5,70 |
| 15-30 | 21,48 | 185 | 24,81 | 0,144 | 1,64 | 0,109 | 1,01 | 5,37 |

Xlorli tuzlar tuproqda eng mobilligi yuqori bo'lgan anion sifatida sho'rlanish jarayonlarining eng sezgir indikatorini hisoblanadi. Profil bo'yicha 0–5 sm qatlamda 0,98 mg ekv, 5–15 sm qatlamda 0,84 mg ekv va 15–30 sm qatlamda 1,17 mg ekv miqdor qayd etildi. Sulfat tuzlari profil bo'yicha aniqlangan miqdori 0–5 sm qatlamda 1,64 mg ekv, 5–15 sm qatlamda 1,81 mg ekv, 15–30 sm qatlamda esa 1,35 mg ekv miqdorida bo'ladi 2-jadval

2-jadval

O'zMU batanika bog'i hududida qadimdan sug'oriladigan tipik bo'z tuproqlarning suvda oson eruvchi tuzlar va pH miqdori % da ko'rsatilgan

| Qat lam, chuqur lik, sm | Anionlar % | | | Kationlar % | | | Quruq qoldiq | pH | Sho'rlanish darajasi |
|-------------------------|------------------|-------|-----------------|------------------|------------------|---|--------------|------|----------------------|
| | HCO ₃ | Cl | SO ₄ | Ca ⁺⁺ | Mg ⁺⁺ | K ⁺ +Na ⁺ Farqi bo'yi Cha | | | |
| 0-5 | 0,013 | 0,036 | 0,079 | 0,088 | 0,042 | 0,030 | 0,295 | 6,81 | Sho'rlanmagan |
| 5-15 | 0,007 | 0,031 | 0,087 | 0,090 | 0,036 | 0,033 | 0,289 | 6,83 | Sho'rlanmagan |
| 15-30 | 0,006 | 0,043 | 0,065 | 0,085 | 0,032 | 0,042 | 0,283 | 6,83 | Sho'rlanmagan |

Irrigatsiya ostidagi tipik bo'z tuproqlarning singdiruv kompleksida kalsiy (Ca²⁺) mutlaq yetakchi ekani aniqlandi: 0–5 sm qatlamda 4,85 mg ekv 100 g⁻¹, 5–15 sm qatlamda 4,45 mg ekv, 15–30 sm qatlamda 4,60 mg ekv. Magniy (Mg²⁺) 4,21–4,55 mg ekv 100 g⁻¹ diapazonida, Ca²⁺/Mg²⁺ nisbatini ~1,05–1,15 atrofida ushlab turadi; bu nisbat kationlar o'zaro antagonizmini minimallashtiradi va tuproq suzish qobiliyatiga (dispersion) yo'l bermaydi

Kaliy (K⁺) 0,15–0,18 mg ekv 100 g⁻¹ darajasida bo'lib, almashinuvchi kationlar yig'indisining atigi ≈2% ini tashkil etadi; bu ekinlar uchun fiziologik zarur, lekin intensiv hosildorlikni maqsad qilganda muntazam K-o'g'itlashni taqozo etadi.

Dissertatsiya ishining uchunchi bobining ikkinchi bo'limida **Mo'ynoq tumani hududining tuproq tahlil natijalari berilgan.**

O'rganilgan tuproqlarda ozuqa elementlar va gumusning miqdori aniqlanib, harakatchan fosfor (P₂O₅) 0–5 sm qatlamda 11,67 mg/kg, 5–15 sm qatlamda 12,28 mg/kg, 15–30 sm qatlamda esa 10,72 mg/kg ni tashkil etdi. Bu miqdorlar mavjud agrokimyoviy tasniflarga ko'ra tuproqning pastdan o'rtachagacha ta'minlangan toifasiga mansubligini anglatadi. Fosforning bu darajada past bo'lishi o'simliklar tomonidan so'rilishi cheklanganligini ko'rsatadi. Shu bilan birga, uning qatlamlar bo'yicha nisbatan barqaror taqsimoti organik moddalar miqdori va pH muhitning neytralga yaqin (pH 6,8 atrofida) bo'lishi bilan izohlanadi, bu esa fosfor fiksatsiyasini pasaytiradi. Almashinuvchan kaliy (K₂O) esa fosfordan farqli o'laroq, barcha qatlamlarda nisbatan barqaror va yuqoriroq qiymatlarda

aniqlangan: 0–5 sm qatlamda 218 mg/kg, 5–15 sm qatlamda 219 mg/kg, 15–30 sm qatlamda 217 mg/kg borligi aniqlandi (3-jadval).

3-jadval

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumani hududida yangidan sug‘oriladigan o‘tloqi alluvial tuproqlarning agrokimyoviy xossalari % va mg/kg ko‘rsatilgan

| Qatlam qalinligi, sm | Harakatchan, mg/kg | | N-NO ₃ , mg/kg | Umumiy, % | | N, % | Gumus % | C:N |
|----------------------|-------------------------------|------------------|---------------------------|-------------------------------|------------------|-------|---------|------|
| | P ₂ O ₅ | K ₂ O | | P ₂ O ₅ | K ₂ O | | | |
| 0-5 | 11,67 | 218 | 9,23 | 0,057 | 1,23 | 0,057 | 0,61 | 2,65 |
| 5-15 | 12,28 | 219 | 9,77 | 0,045 | 1,09 | 0,063 | 0,52 | 4,79 |
| 15-30 | 10,72 | 217 | 8,01 | ,038 | 0,81 | 0,058 | 0,48 | 4,80 |

Hudud bo‘yicha o‘rganilgan barcha kesmalarning 0-30 sm qatlamida tuzlarning miqdori turlicha bo‘lib, jumladan, xlor anionlari miqdori 0-5 sm qatlamda 0,245, 5-15 sm qatlamda 0,227 va 15-30 sm qatlamda 0,221 mg.ekv. ni tashkil qilib, sulfat anionlari miqdori esa 0-5 sm qatlamda 4,43, 5-15 sm qatlamda 4,72 va 15-30 sm qatlamda 4,60 mg.ekv. miqdorda ekanligi aniqlandi. Bulardan ko‘rinib turibdiki, barcha kesmalarda sulfat anionlar miqdori xlor anionlar miqdoridan ustunlik qilmoqda (4-jadval).

Tadqiqot hududidagi sug‘oriladigan o‘tloqi alluvial tuproqlarining singdirilgan kationlar tarkibida yetakchi o‘rinlarni magniy va kalsiy egallab, uning miqdori boshqa kationlarga nisbatan yuqoriligi aniqlandi. Kalsiyning miqdori 0-5 sm qatlamda 18,25mg/ekv, 5-15 sm qatlamda 18,10 mg/ekv, 15-30 sm qatlamlar tarkibida 18,35 mg/ekv borligi, magniyning miqdori 0-5 sm qatlamda 18,02 mg/ekv, 5-15 sm qatlamda 17,52 mg/ekv, 15-30 sm qatlamda 17,93 mg/ekv borligi, 2,20-2,59 mg.ekv tengligi, kaliyning miqdori esa 1,11-1,14 mg.ekv va natriyning miqdori 4,61-5,26 mg.ekv. orasida tebranib turishi aniqlangan.

4-jadval


Qoraqalpog‘iston Respublikasi Mo‘ynoq tumani hududida yangidan sug‘oriladigan o‘tloqi alyuvial tuproqlarning suvda oson eruvchi tuzlar va pH miqdori % da

| Qatlam, chuqurlik, sm | Anionlar % | | | Kationlar % | | | Qur uq qoldiq | pH | Sho‘rlanish darajasi |
|-----------------------|------------------|-------|-----------------|------------------|------------------|---|---------------|------|----------------------|
| | HCO ₃ | Cl | SO ₄ | Ca ⁺⁺ | Mg ⁺⁺ | K ⁺ Na ⁺ Farqi bo‘yicha | | | |
| 0-5 | 0,004 | 0,245 | 0,313 | 0,213 | 0,180 | 0,150 | 1,163 | 7,15 | O‘rtacha sho‘rlangan |

| | | | | | | | | | |
|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|-------|------|----------------------|
| 5-15 | 0,002 | 0,221 | 0,327 | 0,227 | 0,191 | 0,148 | 1,141 | 7,21 | O'rtacha sho'rlangan |
| 15-30 | 0,008 | 0,229 | 0,291 | 0,171 | 0,156 | 0,095 | 0,985 | 7,41 | O'rtacha sho'rlangan |

Uchunchi bobning uchunchi bo'limida **tadqiqot hududi suvlari tahlil qilinib, o'rganildi.**

10 ta ko'rsatkich bo'yicha esa hududlar suvlari o'rtasida sezilarli farq mavjudligi kuzatildi (2-rasm). Jumladan, kislorodning biologik o'zlashtirilishi (5 sutka davomida) bo'yicha hududlarda katta farq sezilgani holda, Mo'ynoq tumani Shag'irli (birinchi hudud) ovuli suv tarkibida 0,48 mg O₂ /l bo'lsa, O'zbekiston Milliy universiteti Botanika bog'i (ikkinchi hudud)ning suv tarkibida esa 0,13 mg O₂ /l ni, kislorodning kimyoviy o'zlashtirilishi bo'yicha birinchi hudud suvlarining ko'rsatkichi 12,04 mg/l, ikkinchi hudud suvlarida 3,92 mg/l bo'lib, ular o'rtasida 8,12 mg/l tafovut mavjudligi aniqlandi.



3-rasm. O'zMU Botanika bog'i va Mo'ynoq tumani hududlarida sug'orishda foydalanilgan suvlarning tahlil natijalari


Yoki Cl -miqdori Mo'ynoq tumanidan olingan suv na'munasida 438 mg/l ni tashkil etgan bo'lsa, Toshkent shahri O'zMU hududidan olingan suvlarda 27 mg/l ni tashkil etib, oradagi farq 411 mg/l ni tashkil etishi, quruq qoldiq miqdori bo'yicha ham 2354 mg/l ga farq mavjudligi aniqlandi.

Shuningdek, moddalarning umumiy miqdori, NO₂-, NO₃-, PO₄, HCO₃ va SO₄-miqdorlari ham Mo'ynoq tumani hududidan olingan suvlarda ancha yuqori ekanligi va ikki hududdan olingan suv tahlillariga ko'ra bu ko'rsatkichlar bir-biridan keskin farq qilishini ko'rsatdi. Mo'ynoq tumani Shag'irli ovulidagi tadqiqot uchastkasidan olingan suv namunalari tahlili natijalariga ko'ra, suvning ishqoriylik darajasi yuqori ekanligi aniqlandi.

Uchunchi bobining **to‘rtinchi bo‘limida** *Raphanus sativus* L. nav va duragaylari unuvchanligiga qarab maqbul harorat va O‘zbekistonning turli hududlari uchun ekish muddatlari va ekish sxemasi qilib o‘rganildi. Ko‘rsatib o‘tilgan hududlarda daykon o‘simligi ikkinchi ekin sifatida 6 muddatda, 4 takrorlanishda 200 donadan urug‘ ekilib unuvchanligi aniqlandi. Unuvchanlik ekilgandan 3 kun, 5 kun va 7 kun o‘tib aniqlandi. Ekilgan kundan boshlab 7-kungacha bo‘lgan davrga qadar kunlik harorat kuzatilib, o‘rtacha harorat aniqlandi

Markaziy Toshkent shahri hududida 20 iyulda ekilganida o‘rtacha harorat 32 C⁰ tashkil etib, 3 kunda 40 %, 5 kunda 60 % va 7 kunda 80 % urug‘lar unib chiqqan bo‘lsa, 25 va 30 iyulda ekilganida o‘rtacha harorat 29-29,5⁰C tashkil etib, ekilganidan 5 kun o‘tib 93-94 % va 7 kun o‘tib, 97-98 % urug‘lar unib chiqqani aniqlandi. 5, 10, 15-avgustlarda ekilganida esa unuvchanlik darajasi pasayishi, ya’ni 7 kun o‘tib 85-89 % unuvchanlikni qayd etilib, bu hudud uchun 25-30 iyulda ekilgan urug‘lar eng yaxshi unuvchanlikni ko‘rsatdi.


Sodiq navi urug‘lari O‘zMU Botanika bog‘i sharoitida ekilganida 1,5-2,5 sm chuqurlikda, urug‘lar oralig‘i 20 sm va egatlar orasi 60 sm oraliqda ekildi. Bir sotix yer maydoniga $160 \times 100 = 16\ 600$ $16\ 600 \times 100 = 83\ 000$ dona urug‘ ekiladi.



4.-rasm. O‘zMU Botanika bog‘ida daykon urug‘larini ekish sxemasi

Bir gektar maydonga ekish uchun ketadigan urug‘lar sarfi $166 \times 7 \text{g} = 1\ 162$ kg ni tashkil qiladi (3-rasm).

Sodiq navi urug‘lari O‘zMU Botanika bog‘i sharoitida ekilganida 1,5-2,5 sm chuqurlikda, urug‘lar oralig‘i 15 sm va egatlar orasi 60 sm oraliqda ekildi. Bir sotix yer maydoniga $160 \times 100 = 16\ 600$ $16\ 600 \times 100 = 83\ 000$ dona urug‘ ekiladi.




5.-rasm. Mo‘ynoq tumanida daykon urug‘larini ekish sxemasi

Bir gektar maydonga ekish uchun ketadigan urug‘lar sarfi $166 \times 7 \text{g} = 1\ 162$ kg ni tashkil qiladi (4. –rasm).

Uchunchi bobning **beshinch** bo'limida Respublikamizning turli ekologik hududlarida yetishtirilgan daykon o'simligi nav va duragaylarini morfoxo'jalik belgilari bo'yicha qiyosiy tahliliga bag'ishlangan. Daykon o'simligining ildizmevasining uzunligi tahlil qilinganida, Sodiq navi ildizmevasining uzunligi 29-35 sm oralig'ida bo'lib, o'rtacha ildizmeva uzunligi 32,2 sm ni tashkil etdi. Cheong du va Big time duragaylarining ildizmevasi uzunligi mos ravishda 20 sm va 22,8 sm ga teng bo'lib, Sodiq navi nisbatan sezilarli ravishda past bo'ldi. Ildizmeva diametri aniqlanganida esa, Sodiq navi ildizmevasining diametri nisbatan past bo'lib, o'rtacha bir ildizmeva diametri 22,1 sm ga to'g'ri keldi. Cheong du duragayi ildizmevasi diametri o'rtacha 25,9 sm ni tashkil etgan bo'lsa, Big time duragayining ildizmevasi diametri 28,4 sm ni tashkil etdi. Bundan ko'rinib turibdiki, Sodiq navining ildizmevasi uzun va nisbatan ingichka bo'lgan bo'lsa, Cheong du va Big time duragaylarining ildizmevasi nisbatan kalta va yo'g'on ekanligi bilan bir-biridan farqlanishi aniqlandi (5-rasm).

Mo'ynoq sharoitida yetishtirilgan daykon o'simligi ildizmevasining ham nisbatan past bo'lishi aniqlanib, Sodiq navining ildizmeva uzunligi 19,5-23 sm oralig'ida bo'lib, o'rtacha ko'rsatkich 21,6 sm ga teng bo'lgan bo'lsa, Cheong du duragayining ildizmevasi 22-24 sm oralig'ida va o'rtacha uzunligi 22,2 sm ni va Big time duragayida ildizmeva uzunligi 20,5-24,1 sm oralig'ida bo'lib, o'rtacha uzunlik 22,5 sm ga teng bo'ldi va aynan ildizmeva uzunligi bo'yicha nav va duragaylar o'rtasida katta farq kuzatilmadi (5-rasm).



6-rasm Toshkent shahri O'zMU Botanika bog'i va Qoraqalpog'iston respublikasi Mo'ynoq tumani sharoitida Daykon navi va duragaylarining ayrim morfologik ko'rsatkichlari

Ikkinchi ko'rsatkich ildizmeva diametri bo'lib, Sodiq navida nisbatan ingichka ekanligi aniqlanib, diametri o'rtacha 12,76 sm ga teng bo'ldi. Cheong du duragayining ildizmevasi nisbatan yuqoriroq bo'lgan bo'lsa, ildizmeva diametri o'rtacha 15,34 sm ga va Big time duragayida esa ildizmevasi nisbatan yo'g'on bo'lgani holda diametri o'rtacha 21,06 sm ni tashkil etdi va ildizmeva diametri bo'yicha 1-2 tajriba maydonidagi olingan natijalarga nisbatan past bo'lishi aniqlandi.

Uchunchi bobining **oltinchi bo'limida** Respublikamiz turli iqlim sharoitlarida daykon nav va duragaylarini biokimyoviy ko'rsatkichlarini o'rganish ga bag'ishlangan.

